

**OMON MUXTORNING SYUJETDAN TASHQARI ELEMENTLARNI  
QO'LLASH MAHORATI**

*Yuldasheva Umida*

*O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyati*

*Guliston davlat universiteti "Adabiyotshunoslik"*

*yo'nalishi tayanch doktoranti*

**OMON MUXTORNING SYUJETDAN TASHQARI ELEMENTLARNI  
QO'LLASH MAHORATI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada syujetdan tashqari elementlar haqida batafsil aytib o'tilgan. Ularning badiiy asar poetikasidagi ahamiyati yoritib berilgan. Omon Muxtarning syujetdan tashqari elementlarni qo'llash mahorati o'r ganilgan. Muallifning "Ffu", "Ayollar mamlakati va sultanati", "Ko'zgu oldidagi odam" romanlaridagi badiiy qoliplash unsurlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Syujetdan tashqari unsurlar, badiiy qoliplash, rivoyatlar, latifa, hikoyat, afsona, tush, ertak.

**УМЕНИЕ ОМОН МУХТОРА ИСПОЛЬЗОВАТЬ ЭЛЕМЕНТЫ ВНЕ СЮЖЕТА**

**Абстрактный.** В этой статье подробно описаны не сюжетные элементы. Подчеркивается их значение в поэтике художественного произведения. Изучена способность Амона Мухтара использовать элементы вне сюжета. Анализируются элементы художественной лепки в романах автора «Ффу», «Страна женщин и королевство», «Человек перед зеркалом».

**Ключевые слова.** Бессюжетные элементы, художественное моделирование, рассказы, анекдоты, рассказы, легенды, сны, сказки.



## **OMON MUKHTOR'S SKILL IN USING ELEMENTS OUTSIDE THE PLOT**

**Abstract.** This article details non-plot elements. Their importance in the poetics of the artistic work is highlighted. Amon Mukhtar's ability to use elements outside the plot has been studied. The elements of artistic molding in the author's novels "Ffu", "The Country of Women and the Kingdom", "The Man in Front of the Mirror" are analyzed.

**Keywords.** Non-plot elements, artistic modeling, narratives, anecdotes, stories, legends, dreams, fairy tales.

Syujetdan tashqari unsurlardan biri sifatida biz Omon Muxtor romanlarida keltirgan rivoyatlarni ham alohida tahlilga tortdik. Bunday badiiy qoliplash asosida adibning romanlari yanada badiiy va falsafiy ruhni namoyon etgan. Muallif biror roman ustida ishlar ekan, unda shunchaki o‘z o‘y-mushohadalarini tasvirlash bilangina ch eklanib qolmaydi. U asarlarini munosib sarlavha, epigraflar, badiiy qoliplash, lirik chekinishlar, tarixiy ma’lumotlar bilan uyg‘unlashtirib, “zuvalasini pishitib”, so‘nggina kitobxonga taqdim etadi. Bu kitobxonga ma’naviy ozuqa bo‘lgan badiiy asarga hurmat, adib degan nomga mas’uliyat bilan yondashishdir. Omon Muxtorning deyarli har bir romanida xalq maqollari, rivoyatlar, hikmatli so‘zlar va ustozlar ijodiga to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaatlar yoki ishoralarni, ko‘rishimiz mumkin.

Badiiy qoliplash sodir bo‘layotgan voqealar yoki xarakterlarni kitobxonga yanda yaqinlashtirish uchun qo‘llaniladi. “Qoliplash – badiiy asarda mustaqil voqealarni ma’lum bir voqa doirasiga solib tasvirlash usulidir” [1-153]. “Tasvirlanayotgan xarakterlar va hodisalar mohiyatini yaqqol ochib ko‘rsatish maqsadida ularga yaqin bo‘lgan voqealar chizilishi badiiy qoliplash deb ataladi” [2-95]. Badiiy qoliplash uchun muallif afsona, rivoyat va ba’zan tush kabi hodisalardan foydalanadi. Omon Muxtor ijodida bunday badiiy qoliplovchi unsurlar juda o‘rin

egallaydi. Ya’ni muallif deyarli har bir asarida rivoyatlar, afsonalar, tushlar, hattoki, latifa yoki masallardan ham badiiy qoliplash maqsadida foydalangan. Bu asarning mag‘zini chaqishimizni osonlashtiradi, bir xil voqelkdan biroz chekinib, ammo o‘sha voqelikning mohiyatini chuqqurroq anglashimizga zamin yaratadi.

Omon Muxtorning asarlaridagi badiiy qoliplash vositalarini janriga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1- rivoyat va afsona;
- 2- hikoyat;
- 3- latifa;
- 4- tush;
- 5- ertak.

“Ffu” romanida davr ruhi va ijtimoiy hayotni yaxshiroq tasavvur qilish uchun eski bir latifa keltiriladi:

“Qadimda bir hukumdor sinash uchun olomonni maydonga to‘plabdi.

Yarim murojaat, yarim buyruq ohangida :

- Yaqin kunlarda yer-suvlaringizni tortib olishga to‘g‘ri keladi! – debdi.  
Olomon indamay uy-uyiga tarqalibdi. Uch-to‘rt kundan keyin hukumdor yana olomonni to‘plabdi:
- Bundan buyon er-xotin hammang bitta ko‘rpa ichida yotasanlar!  
Olomon bu gal ham indamay uy-uyiga jo‘nabdi.  
Hukumdor bo‘g‘ilib, ko‘p o‘tmay odamlarni yana to‘plabdi:
- Ertaga ana shu maydonda hammangni osaman!  
Tajjubki, olomon odatdagidek indamay tarqalayotgan emish! Faqat birgina kishi botinib-botinmay hukumdorga yuzlanibdi:
- Onhazrat arqonni o‘zimiz keltiraylikmi, yoki berishadimi?!” [3-22].

“Ffu” romanida uzoq o‘tmishdagi bir podsholik davri tasvirlangan. Ammo bu latifa orqali muallif faqatgina o‘sha davrdagi muhit, insonlarning o‘ta itoatkorligini tasvirlab berish emas, shu bilan birga, keyingi mustabid davrdagi xalqning tobeligidan, qadriyat va hurlik tuyg‘ularidan yiroqlashganligidan ham iztirobda ekanligini ifdalagan. Biz latifadagi hukumdorni johil deya olmaymiz. Negaki, u atay xalqni sinash, ularni “uyg‘otish” uchun bu xiylni qildi. Hukumdar dastlab yarim murojaat, yarim buyruq ohangida gapirgan bo‘lsa, oxiriga kelib asabiy holda bo‘g‘ilib gapiradi. Xalq esa shu qadar mute ediki, o‘limga ham isyon qilmaydi.

Xuddi shu latifaga o‘xhash bir rivoyatni “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida ham keltirib o‘tadi. Voqealar, muhit bir-biriga o‘xhash bo‘lsa-da, ammo bu rivoyatda isyonkorlik ruhi bor:

“Qadim zamonda, bizdan olis tomonda bir mamlakat bo‘lgan ekan. Hamma joydagidek, mamlakat poytaxtida katta maydon; maydonda dor o‘rnatilgan ekan... Hayot tinch davom etayotib, kutilmaganfda kallai-saharlab bir odam o‘z-o‘zidan dor ostiga kelib, o‘tirib olibdi. “Dor ostiga sudrab kelingan” yoki “dor ostidan qochgan” degan gaplar bor, lekin o‘zi dorga boshini tutgan kimsa yo‘qligidan, a’yonlarbeklardan jallodlargacha – barcha shoshilib maydonga to‘planishibdi. “Sen bu yerda nima qilib o‘tiribsani?!” – deb so‘rashibdi boyagi odamdan. “Meni osinglar!” – debdi boyagi odam. “Nega?!” – deb so‘rashibdi. Boyagi odam shunday gap qilibdi... Menga: “Hayotdan ham, o‘zingdan ham norozi bo‘lma... Hech narsani eshitma!” – deyishdi. Qulog‘imga paxta tiqib oldim. “Hech narsani ko‘rma!” – deyishdi. O‘zim o‘z ko‘zlarimni bog‘ladim. “Gapirma!” – deyishdi. Tilimni tishlab yurdim. “Kulma!” – deyishdi. Bunga ham ko‘ndim. Endi: “Hech narsani sezmagandek yur. O‘ylama!” – deyishyabdi. Men tirik odamman. Idrok qilmay yashayolmayman! Undan ko‘ra meni osib qo‘yaqolinglar” [4-247].

Bu rivoyatni mag‘zini chaqib berishni Valijon Siroj muallimdan so‘ragan edi. Siroj muallim ular uchun o‘ylaydiganlar bor ekanligini, o‘ylamay yashab yuraverishga da’vat qiladi. Valjonning shunday iqrori keltirilgan: “...Men (o‘ylamay-izoh bizniki) yashab yuravergan edim”. Bu birligining Valijonga tegishli iqror emas edi.

Ayni shu rivoyat haqida adabiyotshunos Erkin Samandar quyidagi fikrni ilgari surgan: “Hur fikrlilik azaldan xalqimiz xislati, fikr bo‘g‘ilgan joyda – u hamisha isyonga kelgan. Qissadan chiqqan bu hissa uchala kitobdan qizil ip bo‘lib o‘tadi” [4-7].

Omon Muxtor “Ayollar mamlakati va sultanati” romanida badiiy qoliplash uchun ertakdan ham foydalanadi. Bu “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on” [3-142] ertagi bo‘lib, muallif ertakni asarga to‘liq holda olib kirgan. Ertakning o‘zi asarda uch betni band qiladi. Bunday badiiy qoliplashdan maqsad, inson va muhit haqiqatini anglash bo‘lsa, “Ko‘zgu oldidagi odam” romanidagi “Afandi va uning to‘ni” [4-267] haqidagi latifada o‘zligini anglash va o‘iga baho berish ifodasi sifatida qo‘llanilgan. Shuningdek, “Ko‘zgu oldidagi odam” romanida “Zahhok va Iblis” [4-244] hikoyati, “Ayollar mamlakati va sultanati” romanida Olimjonning tushi [3-95] bosh qahramonlarning ruhiy-psixologik holatini anglatish uchun ham yana bir muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Muallif asarlarga kreativ (ijodkorlik, yangicha fikr bilan – izoh bizniki) yondashar edi. U yangilik qilishdan cho‘chimas, qanday xohlasa shunday yozar, qalbidagi borini to‘kib solar edi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boboyev T. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T.: O ‘zbekiston, 2002.
2. Xudoyberdiyev E. “Adabiyotshunoslikka kirish”. T.: Sharq nashriyoti, 2008.
3. Omon Muxtor “Ayollar mamlakati va sultanati”. T.: Sharq nashriyoti, 1997.
4. Omon Muxtor “To‘rt tomon qibla”. T.: Sharq, 2000.